



ATOV BIRLIKLARI MA'NOLARINING MAXSUSLASHUVI O'ZBEK TILIDAGI UMUMLISONIY HODISA SIFATIDA

Bo'riyeva Charos

Qarshi davlat universiteti lingvistika yo'nalishi magistri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7861290>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2023

Accepted: 24th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Atov birliklari, alla, qadriyat, tarbiya, ma'naviy

ABSTRACT

Ushbu maqolada atov birliklari ma'nolarining maxsuslashuvi, o'zbek tilida shakllanishi, asosiy tushunchalar tavsifi, ilmiy qarashlarda har xilliklar haqida mulohazalar aytib o'tilgan.

Milliy qadriyatimizning eng ulug' sharafiga, unga zamonlargina emas, asrlar o'tib kelajak avlod qancha ko'p foydalansalar, ularning turli xil tomonlarini shuncha ko'p topishga muvassar bo'ladilar. Ma'lumki, xalqimiz odatlari, milliy boyliklarga har bir zamonda isonlar tomonidan murojaat e'tib kelinmoqda.

Yurtboshimizning 2019 yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi farmonlari, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari ham ushbu holatga aloqador qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlarni bajarishda ushbu maqola ilmiy manba vazifasida foydalaniladi.

Buyuk ajdodlarimiz urf-odatlari, xalq farovonligi uchun jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shgani bilan e'tirofga sazovordir. Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Shekspir, Alisher Navoiy, Pushkin kabi olimlarning hamma asarlari o'z xalqi madaniyati, ma'naviyati buyuk insonparvarligi bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushgan hamda insonlar bunday milliy boyliklarni asrlar osha e'zozlab foydalanib kelishmoqda. 20- asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan Bexbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy ilmiy izlanishlarini o'rganish har bir jamiyatimiz a'zolarining milliy e'tiqodini yuksaltirib boradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da alla so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan.

Alla — 1) go'dakni uxlatish jarayonida yakkaxonlik uslubida aytiladigan qo'shiq. Alla aytmoq. Ko'nglimga bitmas farog'at berdi onam allasi, Bo'ronli yillar jasorat berdi onam allasi. Keyin [To'xtaxon] birdan alla ayta boshladi: -Bo'ylaringga bo'y tumor bo'lay, bolam, alla, Ko'zlaringga ko'z tumor bo'lay, bolam, alla. S. Zunnunova, «Gulxan» .

Beshik to'yida beshik olib kelgan ayollar tomonidan aytiladigan qo'shiq.

ALLA II: alla bo'lmoq s. t. Charxpalak bo'lmoq, chirpirak bo'lib, umbaloq oshib yiqilmoq, qulamoq. Qoqilib ketib, alla bo'ldi. Alla qilmoq



1) charxpalak qilmoq, «dast ko'tarib yiqitmoq, ko'tarib urmoq». Elmurod kiyimlarini qoqar ekan, yigitlar atrofini o'rashib, shovqin, kulgi bilan hazil qilishdi: -Bay-bay, zo'r ekansiz-a! Polvonni alla qilib qo'ydingiz-a!

2) ko'chma boplab aldamoq, firib bermoq. -O'zimizam alla qilib qo'lga tushiruvdik,— dedi Soli sovuq.

3) uxlatmoq.

Buyuk allomamiz Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» kitobida farzand tarbiyasida allaning qanchalik o'rni haqida aytadi: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir». Alla farzand tarbiyasida muhim hisoblangan. Onaning jozibador tovushlari zamon nafasini berib, insonlar hayoti, ularning munosabatlarini, ziddiyatlarini yoqimli va qalb kechirmalari bilan betakror ifodalab berishgan. Yurtboshimiz aytganlaridek: "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", deb aytganlari zahirida juda katta ma'no yotadi.

Ma'lumki, alla so'zining ma'nosida xalqimizga xos tarbiyaning ildizlari mujassam bo'lgan, unda ezgu fazilatlarimiz chuqur o'rin olgan. Xalqimiz hayotidagi ajoyib lahzalar teran aks etadi. Hozirgi kunda kelajak avlod vakillarining ilm olishiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Bu borada bir qancha ilm dargohlari qad rostlamoqda. Vatandoshlarimiz ham kundan kunga ilm chuqqillarini zabt etib, o'z bilimlarini oshirib kelishmoda. Bu yurtboshimiz ko'rsatayotgan imkoniyatlariga, hozirgi yosh avlodning javobi hisoblanadi. Mehnatsevarlik, halollik, adolatlilik singari ezgu fazilatlar bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shish har bir vatandoshimizning burchidir.

References:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" harakatining IV qurultoydagi nutqi.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ahmad Aliyev "Ma'naviyat, qadriyat va badiyat" T.2000-yil
4. lex.uz sayti, gazeta.uz sayti